

*Boyovut tumani Axborot Kutubxona Markazi
Bibliografiya xizmati*




*Zahiriddin Muhammad Boburdek umr ko'rgan
Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligiga
Bibliografik qo'llanma.*

UO'K – 82

M-93

Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligiga tayyorlangan: bibliografik qo'llanma / tuzuvchi: O.Eshqozoqova; muharrir: N. Axmatova. - Boyovut: Sirdaryo viloyati Boyovut tuman Axborot – kutubxona markazi, 2024.-22b.

Uslubiy qo'llanmadan – o'quvchilar, talabalar, kutubxona muassasalari mutaxassislari foydalanishlari mumkin. Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.



MUHAMMAD YUSUF
(1954-2001)

Kirish

Bugungi demokratik va mustaqil davlat O'zbekistonda vatan milliy ruhi, ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Madaniyat markazlari, oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va o'rtamaksus kasb hunar kollejlari va umumiy o'rta ta'lim maktablaridamadaniy, mafiy va badiiy kechalar o'tkazilmoqda. Bu yurtda har bir insonni ma'naviyatli bo'lib o'sishiga e'tibor qaratilmoqda.

Chunki ma'naviyatli kishi o'zbek xalqining orzuistaklarini yaxshianglashi va uni ro'yobga chiqarishga harakat qilishi mumkin.

.Ma'naviyat asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan, kishilarning ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib kelayotgan kuchdir. Shunday ekan ma'naviyatli insonni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridandir. Agar ma'naviyatli insonlarni bugun yoshlarimiz orasidan yetishtirib chiqara olsak, ertangi kun kelajagimizning mustahkam poydevorini o'rnatgan bo'lamiz. Bugungi kun ta'lim dasturlari talabiga ko'ra, yoshlarning ma'naviy boyligini oshirishda xalq og'zaki ijodi bilan birga vatanparvarlik ruhida yozilgan she'riy va nasriy yo'l bilan yozilgan asarlar ham muhim o'rin tutadi. Bunday asarlarda bugungi kunning muhim muammolari o'z aksini topgan bo'lib, o'quvchilarni zamon bilan hamfikir bo'lishga undaydi. Va asarlarda ko'tarilgan muammolarning yechimini topishi yoki o'zining fikr-mulohazalarini bayon etishi mumkin. Bugungi globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonida ma'naviyatli, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish butun jamiyatimizning bosh masalasidir. Shunday ekan yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida sug'otikgan asarlar bilan tanishtirish har bir pedagogning burchidir.

Muhammad Yusuf hayoti va ijodi

O'zbek adabiyoti shunday chamanzorki uning bo'stonida turfa xil gullarni va ranglarni uchratishimiz mumkin. Bu bo'stonda bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan dilbar shoirlar avlodi qayta-qayta bo'y cho'zaveradi.

Ana shunday betakror shoirlardan biri, shubhasiz, O'zbekiston xalq shoiri, xalqimizning suyuqli farzandi

hammad Yusufdir



Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898-yilda mashhur Dukchi qo'zg'oloni bo'lib o'tgan Mingtepa) tumanidagi Qovunchi qishlog'ida iyy oilada tavallud topdi.[2] Mana shu qishloqda beg'ubor bolaligi, sho'x-shodon o'smirligi o'tdi.

*Nechun qulluq qilmay Andijonga men —
Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim.
Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim —
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..*

*Yodimga o't tushsin, etmasam yodlar —
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar.
Uni tavof etgan Mashrabdek zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men, —*

deb yozadi keyinchalik shoir.

O'rta maktab ta'limini olgach, Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kirdi va uni 1978-yilda bitiradi. Uning dastlabki she'rlaridan namunalar 1976-yilda «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligi sahifalarida chop etilgandi. Bu paytlar o'zbek she'riyati o'zining yangi yuksalish pog'onasiga ko'tarilgan, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron singari ko'plab iste'dodlar o'rtasida o'ziga xos ijodiy musobaqa avjga chiqqan edi. Bu ijod davrasiga dadil kirib borish, o'ziga mos o'rinni egallash oson ish bo'lmis edi. Bu ishning uddasidan chiqa olgan, adabiy jamoatchilik nazarini o'z tomoniga qarata olgan shoirlardan biri Muhammad Yusuf bo'ldi.

Yosh ijodkor 1978-1980-yillarda respublika «Kitobsevarlar» jamiyatida, 1980-1986-yillar oralig'ida poytaxtning «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992-yillarda esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida xizmat qiladi. Mana shu nashriyatda ishlash yillari Muhammad Yusufning ijodiy taqdirida muhim o'rin tutdi. Zero, bu paytda mazkur dargohga zamonasining zabardast ijodkorlaridan biri Erkin Vohidov rahbarlik qilar, barcha bo'limlarda hukm surgan ijod ruhi yosh shoirning kamol topishiga ham jiddiy turtki bergandi.

Muhammad Yusuf she'riyatning turli yo'nalishlarida esda qolarli asarlar yaratayotgan qalamkash do'stlari, ustozlari orasida o'zini shoir sifatida isbot qilishga astoydil harakat qildi:

*Shoir shunday ko'pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor,
Ulug'vor, ularga yetmoq ko'p dushvor.
Ammo ular oyga bosib yuzini
Turganda osmonin bag'riga ilk bor
Biz olib borgaymiz tuproq isini,
Gulday dimog'iga tutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o'tamiz, qizim!..*

Muhammad Yusuf 1992-1995-yillarda «O'zbekiston ovozi» gazetasida, O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA)da xizmat qildi. 1997-yildan e'tiboran shoir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o'rinbosari etib tayinlandi.

Garchi, uning she'rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo'lsa-da, birinchi she'riy to'plami nisbatan kech - 1985-yildagina e'lon qilingandi. Shundan keyin shoirning «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989), «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Yolg'onchi yor», «Erka kiyik» (1992), «Osmonimga olib ketaman» singari o'nlab she'riy majmualari o'quvchi qo'liga yetib bordi. U yirik poetik janrlarga ham murojaat etib, «Osmonning oxiri», «Qora quyosh» singari dostonlar yaratdi.

Yurtimizning mustaqillikka erishgani Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go'zal she'rlari o'zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning «Vatanim», «Xalq bo'l, elim», «Dunyo», «Inshoolloh», «O'zbekmomo», «Iqror», «Tilak» singari o'nlab she'rlari chinakam she'riyat yurtini qanday kuylamog'i lozimligini isbotlagan asarlar bo'lib qoldi.

Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998-yilda «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

Muhammad Yusuf ijodi keyingi davr o'zbek qo'shiqchiligi rivojida muhim o'rin tutadi. Milliy san'atimizning eng yirik va iste'dodli vakillaridan tortib, havaskor qo'shiqchilargacha shoir she'rlarini kuyga soladilar va hozirgi kunda ham shoir she'rlari sevib o'qiladi yangi-yangi bastalangan kuylarga ashula qilib solinadi. Marhum qo'shiqchi Muhiddin Xoliqov, O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov, Yulduz Usmonova, O'zbekiston xalq artisti G'iyos Boytoyev ijodlarining asosiy manbasi Muhammad Yusuf she'rlari bilan bog'liqdir.

Afsuski, Muhammad Yusufning umri qisqa bo'ldi. U 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumaniga qilingan ijodiy safar chog'ida, yuzlab muxlislari qarshisida she'r o'qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi. Xuddi Boburdek, Shavkat Rahmondek Muhammad Yusuf ham bor-yo'g'i 47 yil umr ko'rdi.

Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug'ilishi, kamol topishi, o'zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi...

Ol, deya bir Egam, osmonga uchsa ruhlarim,
Bir ajib moviy diyor bo'ynini quchsa ruhlarim,
Ko'k mening ko'ksim bo'lur, yulduzlari - anduhlarim,
Gul o'pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur,
Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur...

Muhammad Yusuf ijodidan namunalar va ularning tahlili

YURTIM, ADO BO'LMAS ARMONLARING BOR...

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor,
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,
Oy botgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi maydonlaring bor...

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringda ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og'ir olma so'zimni,
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini
Olistarda qolgan Usmonlaring bor.

*Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyini sotib shoir bo'lganlar —
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...*

*Qurboning bo'layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring - mening fig'onim,
O'tmishingni o'ylab qiynalar jonim,
Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor*

Biz tarix daralaridan yaxshi bilib boryapmizki, o'zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Va bu xalq tarixda misli ko'rilmagan hodisalarni boshdan kechirgan. Ikki daryo oralig'ida joylashgan, zamini hosildor, xalqi mehnatkash, o'troq madaniyatning noyob namunalarni yaratgan bu diyorga kimlarning ko'zi kuymagan deysiz. Bosqinchi ketidan bosqinchilar kelib, bu go'zal yurtni g'orat qilishga — boyliklarini talash, xalqini qullikka muhtalo qilishga urinardi.

Xalqimiz bamisli samandar (olovda tug'ilib, olovdan omon chiqadigan afsonaviy qush)dek barcha sinovlardan omon chiqdi, sharaf bilan chiqdi. Biroq bu kurashlar, ozodlikka bo'lgan intilishlar, albattaki, qurbonsiz, yo'qotishlarsiz kechmadi. Millatning ne-ne bahodirlari, yurt ozodligini har narsadan ustun bilgan xalqning asl farzandlari shu kurash maydonlarida jon berdilar.

Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, yov kelganda o'zini chetga olgan, joni shirinlik qilib sha'nidan kechgan, hatto do'stlarini sotgan kimsalarni ham, afsuski, tarix yoddan chiqarmaydi. Ularning kirdikorlari tufayli yurtning «ado bo'lmas armonlari, toshlarni yig'latgan dostonlari» paydo bo'ldi.

Mana shu o'tmishni o'ylamaslik, bilmaslik, his qilmaslik mumkin emas. Xotira qachon bizga ko'makka keladi, ertangi kun uchun xizmat qiladi? Qachonki, u uyg'onsa, anglansa va his qilinsa! Ayniqsa, sobiq sho'ro davrida yurtimiz va yurtdoshlarimiz boshidan kechgan musibatlarni unutishga hech kimning haqi yo'q. «Qora ko'zlarini» tug'ilmay qolgan farzandlari emas, balki olis Sibir o'rmonlaridagi «qayinbarglar yopgan» Usmon Nosirning ham xuddi siz-u bizdek yashashga haqi bor edi. Uning ham joni sabil emas edi. Afsuski...

Afsuski, o'zimizdan chiqqan sotqinlar, mehrobgga in qurgan chayonlar Usmon Nosirning ham, Abdulla Qodiriyning ham, Cho'lpon va Fitratning ham umriga zomin bo'ldilar.

Albatta, bugun bir millat vakillarining bobolari hayotida yo'l qo'ygan xatolari tufayli bir-birlarini qoralab o'tirish mavridi emas. Lekin bu degani, «o'tgan o'tdi — ketdi», qabilida ham tushunilmasligi lozim. Shoirning istagi — bugungi va kelgusi avlod bu o'tmishdan saboq chiqarsin, ertaga bo'ladigan ming turli hayot sinovlariga tayyor tursin!

Shundagina millat millat bo'ladi, xalq chinakam xalq bo'ladi. Shundagina odamlar ruhiyatidan olomonlik hissi chekinib, chinakam shaxslar shakllanadi.

SURAT

*Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim.
Men bir g'alatiman,
Men alohida.
Ko'zimning yoshini
Keladi ichgim,
Tilimni chaynagim
Kelar gohida.
Oy mening yelkamga
O'tirib olgan,
Oftob g'avg'o solar
Yurgan yo'limga.
Xayol tushovidan
Chiqolmay qolgan
Umrinni topshirib
Qo'ydim ko'nglimga.
Endi toshni tepsam,
O'par izimni,*

*Yerga ag`anasam —
Yer ham devona.
Barmog`in o`pgandim
Suygan qizimni,
Qo`li yonib ketdi
Gurillab, mana.
Yovvoyi o`rdakka
Berdim sevgimni!..
O`rdak uchdi-ketdi,
Mung`ayib qoldim.
Hayratim obketdi
Qanotida u.
Kim meni aldasa —
Xudoga soldim,
Mayli, aldanmasin
Hayotida u. Yondi,
Yonaverdi Kokillari, so`ng,
Charsillab yuragi
Yondi bearmon.
Yarmi yonib bo`lgan
Ko`ylagi bir yeng
Ishqning bayrog`iga
Aylandi alvon!..
Va o`pdim bayroqni
Men o`sha alvon,
Olov tan,
Olov jon,
Olov his-havas.
Qizil cho`g` to`shalgan
Chimildiq tomon
Otdim men o`zimni
Misli o`tparast.
Uyg`onsam – ko`rpam kul,
Yig`lar sevgilim.
Men seni yig`la deb
Quchgan edimmi?
Ayiqli bosgan gulday
Ezildi ko`nglim,
Qoldim kulko`rpamda,
To`shagim — tuproq.
Yumalab yotaman
Ilonlar bilan.
Ularga ishondim
Bir yordan ko`proq,
Ilon chaqar,
Ammo
Gapirmas yolg`on!..
Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim.
Men bir g`alatiman,
Men - alohida.
Kiyiklar qonini
Keladi ichgim,
Chayonni chaynagim
Kelar gohida*

Muhammad Yusufning «Surat» she'ri shoirning o'z ichki dunyosini kashf etishga urinishi aks etgan asardir. She'rning lirik qahramoni «Men bir g'alatiman, Men alohida» der ekan, uning bu e'tirofini aslo kibrga, manmanlik da'vosiga yo'yamaslik lozim. Uning boshqalardan farqli birgina, biroq nihoyatda muhim fazilat bor. U ham bo'lsa, olam va odamni ko'ngil ko'zi bilan ko'rishi, idrok etishidir. Bunday kishilarning olomon orasiga singib, shu omma ruhiyati bilan birlashib ketishi aslo mumkin emas. Ular qay zamonda, qay tuzumda yashamasinlar, baribir hammadan ajralib turaveradilar.

Hozircha bu holatni tushunishingiz, yanayam aniqrog'i, his qilishingiz, balki qiyinroqdir. Sizga osonlashtirish maqsadida hazrat Navoiy qahramonlaridan Majnunni yodingizga solamiz. Laylining ishq o'tida kuygan, go'yo aql-u hushidan ayrilgan Qaysni ko'rgan boyagi olomon unga Majnun — telba, jinni nomini berdi. Aslida ham shundaymidi?

Mutlaqo!

Bu o'rinda boshqa bir shoir - Abdulla Oripovning «Muhabbat dardidan dardmand qalblarimiz, Kasal bo'lsak ne tong sog'lar orasida» degan go'zal istehzosini eslash o'rinlidir.

«Surat» she'rining lirik qahramoni ham «umrini ko'ngliga topshirib qo'ygan». Bu degani — uning uchun o'zi va boshqalarning ko'nglidan ko'ra muqaddasroq oshyon yo'q. Shu tufayli ham bu beg'ubor, beozor ko'ngilga yetkazilgan og'riqlarni u «Xudoga soladi», uni aldagan ko'ngillarga ham omonlik tilaydi («Mayli, aldanmasin Hayotida u»).

Afsuski, hayotda ko'ngil ko'zi ko'r, hislar va tuyg'ular lazzatini totib yashashni xayoliga ham keltirmaydigan kimsalar uchraydi. Ularning qilmishlari lirik qahramonning go'zal xayollarini to'zg'itib yuboradi, uning ishqdan lovullab yonayotgan yuzlariga muzdek suv uradi, yalang'och va rangsiz hayot haqiqati orzular tush ko'rilayotgan uyquni shafqatsizlarcha buzadi: «Uyg'onsam — ko'rpam kul, Yig'lar sevgilim... Ayyiq bosgan gulday Ezildi ko'nglim...»

Eng yomoni — orzulari ketma-ket aldangan, sekin-asta ixlosi so'ngan lirik qahramon ruhiyatida o'zi istab-istamagan o'zgarishlar yuzaga keladi. Endi uning beorom ruhidagi harorat o'rnini sovuqqonlik, qarashlarida shafqat o'rnini basma-basiga tug'ilgan qaysarlik egallaydi. Agar she'rning dastlabki bandidagi «Ko'zimning yoshini Keladi ichgim, Tilimni chaynagim Kelar gohida» degan misralar bilan she'r adog'idagi «Kiyiklar qonini Keladi ichgim, Chayonni chaynagim Kelar gohida» degan so'zlarni solishtirsak, mohiyatda bo'lib o'tgan alamli o'zgarish ko'lamini yaqqol his qilamiz.

«Surat» she'rida go'yo yashnab turgan yam-yashil bog' (pokiza ishq, sof insoniy hislar) tasviri tushirilgan suratning lovullab yonayotgan olovda bujmayib, sarg'ayib kuyish jarayoni aks ettirilgandek. Axir nozik hislarning qo'pol yolg'on qo'lida ezg'ilanishi xuddi shu manzarani ko'z oldimizga keltirmaydimi?..

Qalbga, ko'ngilga yetkazilgan zaxning o'rni esa hech qachon bitmaydi, deydilar...

*Osmon cho'kib qoldi bu oqshom,
Yulduz bo'lib yog'ildi bir sas.
Bir mahalla nigohni ko'rdim:
Yashash kerak, sevish shart emas.
Sadoqatmi?*

*Kimga kerak u?..
Behudadir ko'zyoshing seli.
Yulduz bo'lib yog'ildi bir sas:
U - begona. U endi kelin...*

*To'y - bu asli badjahl ota,
Baxtli bo'lsin qizim degani.
Uni senga bermasman, bo'tam,
Tirik ekan ko'zim degani.*

*Osmon cho'kib qoldi bu oqshom,
Qonimda bir g'ashlik o'rmalar.
Men olovga otarman endi
Yuragimni qiyma-qiymalab...
Yoqa ushlab qolsin ko'rganlar,
Olovlarga otdim uni, bas.
Yonib ketsin chirsillab qalbim,
Sevish kerak... yashash shart emas!*

Shoirning bu she'rini avvalgi - «Surat» asarining mantiqiy-ruhiy davomi, deb bemaol aytish mumkin. Zero, har ikki she'rda suyanlaridan sadoqatsizlik ko'rgan lirik qahramonning ruhiy qiynoqlari badiiy aks topgandir. Bu she'rda ham «Bir mahalla nigoh»- olomon bir taraf, oshiq yurak esa mutlaqo boshqa taraf.

Yashash kerak, sevish shart emas!» deb hisoblaydigan kimsalar uchun «sadoqat», «his va hayajonlar», «ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab mumkin bo'lmagan tuyg'ular» to'g'risidagi gaplar deyarli hech narsani anglatmaydigan - «bekorchi safsata»dir. Ular ishq-muhabbatning inson ko'nglida yasaydigan misli ko'rilmagan o'zgarishlarini ham «qizamiqqa o'xshab vaqti soati bilan o'tib ketadigan bir narsa» deb biladilar. Ular jismning begona bo'lishi ruhning begonalashuvini aslo anglatmasligini hech tan olgilari kelmaydi: «Behudadir ko'zyoshing seli... U - begona. U endi kelin..» deydi ular.

She'rning dalli-devona lirik qahramoni uchun esa, bo'lib o'tgan hodisa ishq olovini battar kuchaytirsa kuchaytiradiki, aslo pasaytirmaydi. (Mumtoz she'riyatimizda ham hijronning ishq zo'rayishida eng muhim shart sifatida talqin etilganini eslang!)

Zero, bu bo'lib o'tgan hodisa buyuk ishq qudrati oldida nima ekan: «To'y - bu asli badjahl ota, Baxtli bo'lsin qizim degani...» Lirik qahramon uchun bu hodisa bor-yo'g'i shuni anglatadi, xolos!

Demak, «osmon cho'kib qolgan oqshom»da uning qonida «bir'ashlik o'rimalaydi». Qonda o'rimalayotgan bu g'ashlik - dunyoning shafqatsizligi, teskariligiga qarshi ko'tarilgan isyon, ishqqa limmolim yurakni endi unga begonalashib ulgurgan jismdan sitib chiqaradi:

Men olovga otarman endi

Yuragimni qiyma-qiymalab...

Ozarbayjon xalqining dilbar shoiri Samad Vurg'unning ajoyib qo'shiq bo'lgan bir she'rida «Yiqilsin mehvari olam Va tubdan tor-mor o'lsin» degan misra keladi. Muhammad Yusuf tasviridagi ruhning abadiyligiga ishonchi z'r lirik qahramonning olamga hayqirib aytayotgan haqiqati ham ayni kayfiyat ifodasidir:

Yonib ketsin chirsillab qalbm,

Sevish kerak... yashash shart emas!

VATANIM

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug`jahonim.

O`zim xoqon,

O`zim sulton

Sen taxti Sulaymonim.

Yolg`izim, Yagonam deymi,

Topingan koshonam deymi,

O`zing mening ulug`lardan

Ulug`imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,

Chechak otgan izimga,

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga.

Singlim deymi,

Onam deymi,

Hamdard-u hamxonam deymi,

Oftobdan ham o`zing mehri

Ilig`imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,

Xalqda tumor,

Balxda dorga osilgan.

Navoiysan, shoh yonida

Faqirni duo qilgan.

Yassaviysan, meniki deb,

Ko`ringan da'vo qilgan,

Ming bir yo`i ochilmagan

Qo`rig`imsan, Vatanim.

*Sen Xo`jandsan,
Chingizlarga Darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan.
Muqannasan qorachig`i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko`rgan cho`pon:
Cho`lig`imsan, Vatanim.*

*Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin — Kurdistonda,
Boburing — Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda.
Tarqab ketgan to`qson olti
Urug`imsan, Vatanim...*

*O`g`lim, desang osmonlarga
G`irot bo`lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo`lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug`beking quchgayman,
G`ichir-g`ichir tishimdagi
So`lig`imsan, Vatanim...*

*O`tgan kuning — o`tgan kundir,
O`z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo`lin bog`lab,
Dilin dog`lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug`imsan, Vatanim...*

*Sen — shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam, O`g`lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo`ynimdagi iftixorim,
Bo`ynimdagi tumorim,
O`zing mening ulug`lardan
Ulug`imsan, Vatanim!*

Muhammad Yusufning bu she`ri asosida yaratilgan qo`shiqni eshitmagan, uni xonandaga jo`r bo`lib birga aytmagan yurtdoshimiz kam topiladi. Bastakor she`r matniga — mazmun-mohiyatiga shunchalar mos, ohangdosh musiqa topganki, go`yo shoir oldindan shu musiqani xirgoyi qilib ash`or bitganday. She`rdagi mazmun va ohang rivoji (dinamizmi) musiqada ikkinchi umrini boshlaydi, xonanda ovozi goh kuchayib, goh pasayib o`zbekning tarixiy ko`tarilish va tanazzul bosqichlarini ifoda etadi.

Aslida, Vatan to`g`risidagi, yurtimiz tarixida o`tgan ulug`lar nomlarini birma-bir sanab, moziyda bo`lgan voqealarni eslab, ularga hamd-u sanolar aytish tarzida yozilgan she`rlarning soni bor-u sanog`i yo`q. Ularning deyarli barchasida Amir Temur, Manguberdi, Navoiy va Boburlar, Cho`lpon va Fitratlar albatta tilga olinadi, hammaga ma`lum sifat va o`xshatishlar orqali ular ulug`lanadi. Biroq nima uchun

ularning birortasi Muhammad Yusuf she'ri singari mashhur bo'lmadi? Nega bu she'riy tizmalar millionlar ko'ngliga jonli his bo'lib ko'chib o'tmadi?

Demak, Vatan to'g'risida kuylash ham har xil bo'lar ekan-da. Bu she'r-u qo'shiqning ham samimiysi, yurakdan chiqib yurakka boradigani va... aksincha ta'sir qiladigani bo'lar ekan-da. Ozod Sharafiddinovning inson qalbidagi Vatan tuyg'usi, unga sadoqat hislariga bag'ishlangan «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasida olim amalda emas, balki ko'proq og'izda «vatanparvarlik» qiladiganlardan ozurda ko'nglini to'kib solgan. Boyagi she'rlarni ham «Vatan mavzusida ham yozib turish kerak, ajabmas qo'shiq bo'lib qolsa, agar mashhurroq qo'shiqqa aylanib ketsa, davlat biror unvon berib qolsa qani...» qabilidagi o'ylar ortidan «dunyoga kelgan», biroq tug'iliboq shu on jon bergan chalajon, rangpar tizmalardir, deyish mumkin. Chunki Vatanni tama bilan, pisanda bilan sevish mumkin bo'lmaganidek, u haqda ayni maqsadlar bilan yozib ham, kuylab ham bo'lmaydi..

Muhammad Yusufning «Vatanim» she'rida esa mutlaqo boshqa hodisaga duch kelamiz. Shoirning ona yurtidan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq, u bir aka bo'lib, bir o'g'il bo'lib bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt «o'g'lim» deya unga mushtoq bo'lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqqisi, kelgusi padarkushlardan kelajak ulug'beklarini pana qilib quehgisi keladi. Uning uchun Ulug'bek, Navoiy, Bobur yoxud Mashrab bir inson ismi emas, balki xalq, millat fazilati, xalq va millatning mujassam ismidir. Bu ismlar bag'riga shoir xalq tarixini, uning eng zafarli va eng achchiq kunlarini jamlaydi. She'rning har bir bandi oxirida Vatanga beriladigan sifat («ulug'imsan», «ilig'imsan», «qo'rig'imsan», «cho'lig'imsan», «urug'imsan», «dudug'imsan») kamida yuz yillik hodisalar natijasi, quvonch-u alamini ifoda etib keladi. Birgina bandda ifoda topgan ma'nolar ko'lamiga e'tibor beraylik:

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin — Kurdistonda,
Boburing — Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda.
Tarqab ketgan to'qson olti
Urug'imsan, Vatanim...

Bandning dastlabki misrasida chor hukumati tomonidan yurtidan chiqib ketishga majbur qilingan, umrbod ortga qaytolmay Qashqar tuprog'ida xoki qolgan shoir Furqat eslansa, ikkinchi misrada sho'ro davlati qatag'oni qurboni bo'lgan, Sibir o'rmonlarida daraxt kesib umri chirigan Usmon Nosir yodga olinadi. Jaloliddin Manguberdi va Bobur qismati esa Sizga yaxshi ma'lum. Parchadagi keyingi ikki misra alohida tahlilni talab etadi. Agar kuzatayotgan bo'lsangiz, Andijonda tashkil etilgan «Bobur Xalqaro jamg'armasi» turli sabablarga ko'ra qablari xorijda qolib ketgan ulug'larimizning so'nggi makonlarini izlab topish ularning hozirgi holatini o'rganish bo'yicha juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, xalqaro ekspeditsiya tomonidan suratga olingan, hozirgi Afg'oniston hududidagi Navoiy, Lutfiy va boshqa mutafakkir bobolarimizning tashlandiq qablari, turli mojarolar tufayli katta shikast yegan maqbaralarini ko'rib yurtdoshlarimiz nafsoniyatiga ozor yetmasligi mumkin emas. She'rdagi «Bu qanday yuz qarolik deb, Yotarlar zimistonda» misralari ayni shu holatning ham achchiq ifodasi sifatida tushunilishi mumkin...

Shoir nihoyat mustaqilligini, ozodligini qo'lga kiritgan Vatanni qutlar ekan, haqli ravishda xalq nomidan «O'zim xoqon, O'zim sulton, Sen taxti Sulaymonim», deya faxr etadi.

MEHR QOLUR

O'tar qancha yillar to'zoni,
Yulduzlar — ko'zyoshi samoni.
O'tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Qorachug'da porlagan o'sha,
Iqboliga chorlagan o'sha.
Dunyoni tor aylagan o'sha —
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Anor, sening yuzlaring suluv,
Xumor, sening ko'zlaring suluv,
Yodda qolmas so'zlaring suluv,
Mehr qolur, muhabbat qolur.
Oqib ketdi suvlarda Tohir,

*Zuhro yig`lab qoldi qon bag`ir.
Kelganda ham qiyomat oxir,
Mehr qolur, muhabbat qolur...
Nima deysan, ey, g`ayur inson?
G`iybatlaring qildi meni qon.
Sen ham bir kun o`tursan, inon,
Mehr qolur, muhabbat qolur!*

Tilimizda «nekin tuyg`ular» degan ibora bor. Bu — toza, pok, samimiy tuyg`ular deganidir... Hozircha Sizga tushunilishi, yana ham aniqrog`i, his qilinishi biroz qiyinroq bo`lgan hayotning achchiq haqiqatlari bor. Bu haqiqatlarning biri shundan iboratki, dunyo, tiriklik tashvishlari insonni har ko`yga solishi, uning qalbidagi ko`plab toza hislarga zax yetkazishi mumkin.

Agar odam dunyoning bu o`tkinchi tashvishlariga o`ralashib, ruhiyatini ana shu tashvishlar girdobidan olib chiqa olmasa, buning natijasi juda xunuk oqibatlarini keltirib chiqarishi tayin. Albatta, bu oqibatlar yarq etib ko`zga tashlanmasligi, odamning sirtiga qalqib chiqmasligi mumkin. Biroq qalbda paydo bo`lgan qashshoqlik, odam bolasini insoniy his-tuyg`ular tark etishidan-da kattaroq fojia yo`q bu dunyoda.

Odamni odam qilib turgan, uning hayotiga insoniy mazmun baxsh etadigan inja tuyg`ular, avvalo, mehr va muhabbatdir. Shu tuyg`ular tufayli olamda hayot davom etadi, tiriklik tantana qiladi. Zero, otanoning farzandga mehri, akaning singilga achinishi, do`stning do`stga madadi, yigitning qizga muhabbati... Insonlararo munosabatlarning asosida, aslida mana shu tuyg`ular yotibdi.

Bu ko`hna ochun (dunyo) ne-ne saltanatlarni, «dunyo manim!» degan ne-ne jahongirlarni ko`rmadi. Xo`sh, Yer yuzidagi hayotni, tiriklikni shu saltanatlar-u shu jahongirlar saqlab qoldimi?

Mutlaqo!

Hayotni, tiriklikni insonlar o`rtasidagi, ularga Yaratgan tomonidan omonat sifatida in`om etilgan mehr va muhabbat atalmish qudrat asrab qoldi!

Agar insoniyatga mana shu tuyg`ular u yaratilayotgandayoq berilmaganda edi yoki ular butkul unutilib ketganda edi, hech qanday insoniy kuch, biror qudrat Yerdagi hayotni tugab bitishdan saqlab qololmas edi.

Shoir

Qorachug`da porlagan o`sha,

Iqboliga chorlagan o`sha...

der ekan, bu noyob tuyg`ular o`zini doim ham oshkor qilavermasligini urg`ulaydi. Ularni porlab turgan qorachug`lardan, ko`ngilda turib iqboliga chorlayotgan sassiz ovozlardan izlamoq darkor. Shunisi ham borki, dunyodan mehr-u muhabbat talab qilgan odamning o`zida shu tuyg`ular ustuvor bo`lishi lozim. Agar shaxs tabiatida o`zgalarga g`ayirlik, boshqalarni ko`rolmaslik singari nafsiy qarashlar yetakchilik qilsa, mehr ham, muhabbat ham bunday sahosifat vujudni tark etadi...

Muhammad Yusuf hayoti va ijodini muammoli ta`lim asosida o`rganish

Muhammad Yusuf hayoti va ijodini muammoli ta`lim asosida o`rganishning bir qancha afzalliklari bor. Bu metod orqali o`quvchilarni badiiy asarlarni chuqurroq tahlil qilish malakasi oshiriladi. Aslida muammoli ta`lim yaratishning bosh maqsadi o`quvchilarni har tomonlama aqliy rivojlanishini ko`rsatuvchi asosiy factor uning yuqori darajada mustaqil fikrlay olish qobiliyatidir. Agar o`quv jarayoni o`quvchini mustaqil fikr yurita olishga o`rgatsa, unday ta`limni rivojlantirishga asoslangan o`quv – biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

Muammoli vaziyat quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1. Muammoli vaziyatni keltirib chiqarish*
- 2. Muammoli vaziyatni asoslash tushuntirish*
- 3. Muammoli vaziyatni o`quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish*
- 4. Muammoli vaziyatni yechimining bir necha usullarini aniqlash*
- 5. Muammoli vaziyatni yechimini tanlab, har tomonlama baholash*

Muhammad Yusufning ijodi bilan birga uning hayotini o`rganishda muammoli ta`lim metodidan foydalanishimiz mumkin.

Bunda Muhammad Yusufning hayotiga oid biror muammoli savol o`quvchilar o`rtasiga tashlanadi.

Masalan:

a) Muammoli vaziyat keltirib chiqariladi:

Muhammad Yusuf Andijonning Marhamat tumanida tug`ilmaganida shunday go`zal asarlar yoza olarmidi.

b) Muammoli vaziyat asoslanadi:

Muhammad Yusuf 1954-yili Andijon viloyati Marhamat tumanida oddiy oilada tug`ilgan.

c) Muammoli vaziyatni o`quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi:

Muhammad Yusuf hayoti va ijodini har xil usullar bilan o`rganish mumkin.

d) Muammoli vaziyat ni yechishning bir becha usullari aniqlanadi:

O`zbekistonning barcha joylari so`lim va go`zal. Farg`ona viloyati esa o`zgacha chiroylidir. Bu yerning tog`lari, adirlari, odamlari ham o`zgachadir.

e) Muammoli vaziyatning yechimi topiladi:

Yo`q Muhammad Yusuf Andijonda tug`ilmaganida bunday ajoyib she`rlar yoza olmagan bo`lar edi.



O`zbek adabiyoti shunday chamanzorki uning bo`stonida turfa xil gullarni va ranglarni uchratishimiz mumkin. Bu bo`stonda bir-biriga o`xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan dilbar shoirlar avlodi qayta-qayta lavcho`zaveradi.

Ana shunday betakror shoirlardan biri, shubhasiz, O`zbekiston xalq shoiri, xalqimizning suyuqli farzandi Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898-yilda mashhur Dukchi eshon qo`rg`oloni bo`lib o`tgan Mingtepa) tumanidagi Qovunchi qishlog`ida oddiy oilada tavallud topdi. Mana shu qo`lloqda beg`ubor bolaligi, sho`x-shodon o`smirligi o`tdi.

*Nechun qulluq qilmay Andijonga men —
Shu yurtida tug`ildim, shu yurtida o`sdim.
Agar do`stim bo`lsa, bitta u do`stim —
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..
Yodimga o`t tushsin, etmasam yodlar —
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar.
Uni tavof etgan Mashrabdek zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men, —
deb yozadi keyinchalik shoir.*

O`rta maktab ta`limini olgach, Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o`qishga kirib borgan va uni 1978-yilda bitiradi. Uning dastlabki she`rlaridan namunalar 1976-yilda «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» haftaligi sahifalarida chop etilgandi.

Bu paytlar o`zbek she`riyati o`zining yangi yuksalish pog`onasiga ko`tarilgan, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron singari ko`plab iste`dodlar o`rtasida o`ziga xos ijodiy musobaqa avjga chiqqan edi. Bu ijod davrasiga dadil kirib borish, o`ziga mos o`rinni egallash oson ish emas edi. Bu ishning uddasidan chiqqan, adabiy jamoatchilik nazarini o`z tomoniga qarata olgan shoirlardan biri Muhammad Yusuf bo`ldi.

Yosh ijodkor 1978-1980-yillarda respublika «Kitobsevarlar» jamiyatida, 1980-1986-yillar oralig`ida poytaxtning «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992-yillarda esa G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyatida xizmat qiladi. Mana shu nashriyatda ishlash yillari Muhammad Yusufning ijodiy taqdirida muhim o`rin tutdi. Zero, bu paytda mazkur dargohga zamonasining zabardast ijodkorlaridan biri Erkin Vohidov rahbarlik qilar, barcha bo`limlarda hukm surgan ijod ruhi yosh shoirning kamol topishiga ham jiddiy turtki bergandi.

Muhammad Yusuf she`riyatning turli yo`nalishlarida esda qolarli asarlar yaratayotgan qalamkash do`stlari, ustozlari orasida o`zini shoir sifatida isbot qilishga astoydil harakat qildi:

*Shoir shunday ko`pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor,
Ulug`vor, ularga yetmoq ko`p dushvor.
Ammo ular oyga bosib yuzini
Turganda osmonin bag`riga ilk bor
Biz olib borgaymiz tuproq isini,
Gulday dimog`iga tutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o`tamiz, qizim!..*

Muhammad Yusuf 1992-1995-yillarda «O`zbekiston ovozi» gazetasida, O`zbekiston Milliy axborot agentligi (O`ZA)da xizmat qildi. 1997-yildan e`tiboran shoir O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o`rinbosari etib tayinlandi.

Garchi, uning she`rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo`lsa-da, birinchi she`riy to`plami nisbatan kech - 1985-yildagina e`lon qilingandi. Shundan keyin shoirning «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989), «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko`nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko`p ekan» (1991), «Yolg`onchi yor», «Erka kiyik» (1992), «Osmonimga olib ketaman» singari o`nlab she`riy majmualari o`quvchi qo`liga yetib bordi. U yirik poetik janrlarga ham murojaat etib, «Osmonning oxiri», «Qora quyosh» singari dostonlar yaratdi.

Yurtimizning mustaqillikka erishgani Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go`zal she`rlari o`zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning «Vatanim», «Xalq bo`l, elim», «Dunyo», «Inshoolloh», «O`zbekmomo», «Iqror», «Tilak» singari o`nlab she`rlari chinakam she`riyat yurtini qanday kuylamog`i lozimligini isbotlagan asarlar bo`lib qoldi.

Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998-yilda «O`zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

Muhammad Yusuf ijodi keyingi davr o`zbek qo`shiqchiligi rivojida muhim o`rin tutadi. Milliy san`atimizning eng yirik va iste`dodli vakillaridan tortib, havaskor qo`shiqchilargacha shoir she`rlarini kuyga soladilar va hozirgi kunda ham shoir she`rlari sevib o`qiladi yangi-yangi bastalangan kuylarga ashula qilib solinadi. Marhum qo`shiqchi Muhiddin Xoliqov, O`zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov, Yulduz Usmonova, O`zbekiston xalq artisti G`iyos Boytoyev ijodlarining asosiy manbasi Muhammad Yusuf she`rlari bilan bog`liqdir.



Afsuski, Muhammad Yusufning umri qisqa bo`ldi. U 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog`istonning Ellikqal`a tumaniga qilingan ijodiy safar chog`ida, yuzlab muxlislari qarshisida she`r o`qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi. Xuddi Boburdek, Shavkat Rahmondek Muhammad Yusuf ham bor-yo`g`i 47 yil umr ko`rdi.

Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug`ilishi, kamol topishi, o`zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi...

*Ol, deya bir Egam, osmonga uchsa ruhlarim,
Bir ajib moviy diyor bo`ynini quchsa ruhlarim,
Ko`k mening ko`ksim bo`lur, yulduzlari - anduhlarim,
Gul o`pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur,
Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur...*

Muhammad Yusuf – el ardog'idagi shoir. Tadbir ssenariysi

“Zor – zor yig'lab turar Andijon” qo'shig'i ijrosi tugallanishida 2 olib boruvchi chiqib keladi.

1-boshlovchi:

*Bashoratchi deyishadi shoirlarni,
Shuning uchun suyishadi shoirlarni.
Suyib turib suyishadi shoirlarni,
Qizg'aldoqlar qirlarda xor yig'lar bu kun.*

2-boshlovchi:

*Bashoratlar yolg'on chiqsa bo'lmasmidi,
Yolg'on chiqsa, tole` nima kulmasmidi.
Qaro yerning bag'ri sizsiz to'lmasmidi,
Boychechaklar bag'rimda qon yig'lar bu kun.*

1-boshlovchi:

*Talpingani ko'klammidi ko'ngilchamning,
Ko'k kiygani ko'klammidi ko'ngilchamning.
Kiyay desa ko'k kammidi ko'ngilchamning,
Kapalaklar kaftimda xor yig'lar bu kun.*

2-boshlovchi:

*Kuylamasman endi sira muhabbatni,
Kuylasam ham o'ylamasman muhabbatni.
Esga olib har zamonda Muhammadim,
Erka kiyik xumor -xumor yig'lar bu kun.*

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar, aziz o'quvchilar. Muhammad Yusufning yorqin hayoti va ijodiga bag'ishlangan “Muhammad Yusuf – el ardoqlagan shoir” mavzusidagii kechamizga xush kelibsiz, azizlar.

2-boshlovchi:

Bevaqt o'lim adabiyotimiz gulshanida barq urib ochilib, yashnab turgan bir chechakni uzdi-yu, ketdi.

1-boshlovchi:

Muhammad Yusuf adabiyotimizga chaqnab kirib kelgan, qisqa vaqt ichida eng yosh “O'zbekiston xalq shoiri” sifatida tanilgan xalq shoiri edi.

2-boshlovchi:

Uning xalqona ohanglardagi misralari o'zbekning chin ma'nodagi ma'naviy mulkiga aylandi.

1-boshlovchi:

Agar Muhammad Yusuf she'rlarini jamlab, bir nom bilan umumlashtirsa, uni "O'zbek xalqiga qasida" deb atash mumkin bo'lar edi. Chunki har bir she'r misrasi ortida O'zbek, uning dardi, quvonchi, tashvishi, mehri, orzu-umidlari, qo'ying-chi, butun hayoti gavdalanadi.

1-boshlovchi:

*Dillarni titratib sovuq shum xabar
She'r ahlini etdi dilgir va mayus
Safar tez qaribdi nechun bu qadar
Siz qayga ketdingiz, Muhammad Yusuf.*

1-boshlovchi:

*Atrofni kuzatib besabr, beshavq,
Qalbida qo'zg'alib bor amri ma'ruf.
Osmonday yurakni biz uchun to'shab,
Siz qayga ketdingiz, Muhammad Yusuf.
Muhammad Yusufga bag'ishlab yozilgan she'rlar
Muhammad Yusufning "Uzr she'ri".
Biz bahorga oshiq bo'ldik, kuzdan uzr,
Xazonlarda qolib ketgan qizdan uzr,
Har ne o'tsa bizdan o'tdi, bizda gunoh,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.
Dili borgan dardim dildan to'kkanim rost,
So'z boshida bosh egib tiz cho'kkanim rost.
Gohi jonni avaylagan-qo'riqchim rost,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.
O'ksimasin zardob to'la ko'ngilchangiz.
Daryo-daryo ko'z yoshim bor cho'milsangiz,
Men ham mashhur bo'larmidim, tug'ilsangiz,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.
Yuragimning tagidasiz yalpizdan past,
Goh o'ylayman –shundoq qo'lim uzatsam bas!
Yuzingiz bir ko'rmay sira o'lgim kelmas.
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.*

Qo'shiq.

1-boshlovchi:

Shoir O'zbekiston atalmish yurt farzandi ekanligidan cheksiz g'ururlanardi. U millatning chinakkam fi doyi farzandi edi. Mehr va samimiyat bilan "Muhammad Yusufman O'zbekistondan" deya o'zbekligida n faxrlanar, boshqalarni ham shunga undar edi.

2-boshlovchi:

*Aziz vatanimiz va
xalqimizning armonli ohiga aylangan Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi zotlarning
qismati, Amir Temur, Alisher
Navoiy kabi siymolar taqdiri shoir qalamidan she'r bo'lib emas, hasrat bo'lib to'kiladi.*

1-boshlovchi:

*Xalqni ozod ko'rish istagida shahid ketganlarning bezovta ruhlari shoirni qiynaydi.
Shuning uchun bo'lsa kerak, qatag'onlik davrining jirkanch manzaralari va bevaqt xazon bo'lgan vata
ndosh ma'rifatparvar ajdodlarimiz ruhini shod etish maqsadida jo'shib yozardi.*

2-boshlovchi:

O'zbekning ardoqli shoiri Muhammad Yusuf ko'plab jadid adabiyotining namoyondalariga bag'ishlab madhiyalar yozgan. Ular tilidan so'zlaydi, orzu-istaklarini namoyon qiladi.

1-boshlovchi:

*Bir arsloni o'tdi O'zbekning,
Ohi ko'kka yetdi O'zbekning.
Quyosh yig'la, osmon, aza tut,
Muhammadi ketdi O'zbekning.*

2-boshlovchi:

*Baland ketdi, shoniga ketdi,
Jannatning ayvoniga ketdi.
Turk yukini yelkalashay deb,
Yassaviyning yoniga ketdi.
Sahnada tarixiy shaxslar siymosi gavdalanadi.
Amir Temur siymosi
O'shal kuni qayda eding, bolam derman,
Qulog'ingga yetmadimu nolam derman.
Meni qo'zg'ab nima topdi olam, derman,
Yurtdoshlarim so'rog'iga bering javob.
Tirik ersam tinmasdi-ku yarog'im,
O'lik jondin na istarlar, qarog'im.
Qo'lim qayda deyman, bosh chanog'im.
Farzandlarim so'rog'imga bering javob.
Bu qandayin ko'rgulik, yo rabbano,
Yovuz yotdan yer ostida yo'q panoh.
Mirzo Bobur qayda, qayda Mironshoh,
Yurtdoshlarim so'rog'imga bering javob.
Dunyo topdim deydi, dunyo yig'ladim,
Men el uchun ot ustida uxladim,
Nahot endi o'z go'ringa sig'madim,
Farzandlarim so'rog'imga bering javob.
Men ne qilay,
Men bir ojiz bandaman,
Ruhlar bilan bir jonu bir tandaman.
Uzr so'rab har kun samarqanddaman,
Ulug' naslim so'rog'imga bering javob.
Mirzo Ulug'bek so'zlaydi.
Bag'rimda bo'y etgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam.
Bo'g'zinga tig'urgan o'z bolam,
Men dardimni kimga aytaman.
Sezmay qoldim..O'shanda chog'im,
Yulduzlarda ekan nigohim.
Bilmadim ne ekan gunohim,
Men dardimni kimga aytaman.
Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim.
O'z bolamdan kutmagan edim!
Men dardimni kimga aytaman.
Tanim muzlab, goh tosh qotaman,
Men shoh emas, axir otaman,*

*Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman.*

Mirzo Bobur

*Toqatim topdi oqibat,
Taxtni yov oldi oqibat,
O'z yurtim qoldi oqibat
Afg'on ketdim daryo kechib.
Omad kelar ketar ekan
Jon do'sting ham sotar ekan
Ortingdan tosh otar ekan,
Hayron ketdim daryo kechib.
Ikki ko'zim elimdadur,
Cho'g'dek so'zim tilimdadur.
Dilim yonib, dilimda bir
Armon, ketdim daryo kechib.
Bog'ishamol sayr endi-
Qilg'ay chiqib g'ayr endi.
Boburing yo'q, xayr endi,
Anjon, ketdim daryo kechib.
Qo'shiq: "Unutmoq osonmas ularni"*

1-boshlovchi:

Muhammad Yusuf she'rlari orqali nafaqat o'zini, balki qancha – qancha hofizlarni, xonandalarni elga tanitdi. Shoirning har bir so'zi she'r edi. U inson qalbining tub-tubidagi dardini topib yoza olardi. Shoirning yuragi xalq yuragi bilan hanohang urardi.

2-boshlovchi:

U kishi barcha mavzularda: muhabbat, Vatan, ona, shaharlar madhiyasi, tarixiy shaxslar, tabiatga bag'ishlab ijod qilardi. Hatto "peshonasi yo'q qizg'aldoq..." dan tortib "ko'zi to'la yosh jayron" gacha barcha-barchani sevardi.

She'rlar. Sahnaga o'quvchilar kirib keladilar.

1-o'quvchi:

*Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.
Majnun bo'lib sahrolarga yetaklasam
Bu dunyoda birday g'arib men ham, sen ham.
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.
Shamol emas, izing quvib yurdi kamon,
Sayyod mening kulbamni ham qildi vayron,
Sening joning, mening jonim- omonat jon
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.*

2-o'quvchi:

*Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on
Mening dilimda hech o'chmas yolqinsiz,
Qancha korishmasak shuncha qadrdon,
Qancha oils bo'lsak shuncha yaqinsiz.
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim.
Siz mening ko'klardan topgan oftobim
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.
Siz o'sha ko'zimning kiftida yurgan*

*Siz osha ko'nglimga ko'ngli in qurgan
To'kilay deb tilim uchida turgan,
She'rimsiz, bir umr bitmas ohimsiz.*

3-o'quvchi:

Belbog'

*Pahlavon yigitcha polvon yigitcha,
Dimog'i osmonni olg'on yigitcha.
O'zbek ekaningiz yolg'on, yigitcha,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?
Uzr, og'ir olmang achchiq so'zimni,
Qoq yuragingizga sanchiq so'zimni.
Nega yahnatmaydi boqsam ko'zimni,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?
Asli-ku siz tinim bilmas dehqonsiz,
Ter to'kib, hech minnat qilmas dehqonsiz.
Dunyoni gullatib qo'ygan hoqonsiz,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?
Tovoningiz o'psa arzir bu tuproq,
Qancha o'psa shuncha qarzdir bu tuproq.
Ammo g'urur kerak insonga ko'proq,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?
Ulkan paxtazordir yurtning to'rt yog'i,
Yerni oqqa o'rab bo'ldingiz chog'i.
O'sha paxtangizdan tikilgan shohi,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?
Dehqoni, cho'poni, bog'boni bari,
Turkiyning to'qson olti qabilalari.
Ey, Mirzo Boburning nabiralari,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?
Sahnaga Abdulla Qodiriy qahramonlari chiqishadi.
Zaynab:*

*Tengim boshqa, dedi yor,
Topdim desam tengimni.
Marg'ilonlik bir dildor
Tortib oldi begimni.
Kulgi ketmay ko'zimdan
Yog'ar bo'ldi ko'z yoshim
Ko'z-ko'z qilib baxtini
Yoqar bo'ldi kundoshim.
Nima bo'ldi, bek yigit,
Bekangizga qarash yo'q?
Kumushdan ming o'rgilib,
Zaynabdan hol so'rash yo'q.
Taqdir derdim, shum taqdir,
Ko'nglim ko'nsa kuymasdim.
Begim, Sizni men axir,
Kumushdan kam suymasdim.
Qolsam dardim bir dunyo,
Ketsam – bir uy ko'chim bor,
Kumushoyni keltirgan
Aravada o'chim bor!
Sen Shirinu men ham Farhod emasman,
Sen achchig'u men ham novvot emasman.
Zaynab, Zaynab, menga aytma zoringni
Sen dilxun-u men ham dilshod emasman.*

*Boshga neki tushsa ko'pdan atamish,
Biz bir qafas aro giryon bir juft qush.
Bir go'shada sen xomushsan, men xomush,
Sen vayronu men ham obod emasman.
Qo'shiq: "Marg'ilonda Kumushni ko'rdim"*

1-boshlovchi:

Vatanparvarlik g'oyalari Muhammad Yusuf she'riyatining o'zagini, tub mohiyatini tashkil etadi.

2-boshlovchi:

Vatanni har kim o'zicha suyadi, o'zicha ardoqlaydi. Muhammad Yusuf O'zbekistonni alohida bir mehr bilan alqaydi.

1-boshlovchi:

Xalq uchun, Vatan uchun, Mustaqillik uchun yonib yozardi. Uning "O'zbekiston" she'rini bir eslang-a. Qanday go'zal, jozibali, kuchli qo'shiq bo'ldi. Hatto yoshlar madhiyaga aylanib ketdi. Shunday she'rni bitgan shoir o'lishi mumkin-mi? Yo'q also! U hamisha tirik. U biz bilan.

1-boshlovchi:

Vatan haqida juda ko'p yozilgan. Biroq yozmoq bilan yozmoqning farqi bor. Muhammad Yusuf bir she'rida "Yurtim seni iddaolar qimay sevaman" deb aytg anida qanchalar haq edi. Darhaqiqat, u o'z elini, xalqi, vatanini chin farzandday, beg'araz, sitqidildan

yaxshi ko'rar edi. Shu mehrining natijasi o'laroq, uning she'riyati ham xuddi shundoq beminnat va b eg'araz she'riyat sifatida maydonga keldi.

She'rlar:

"Vatan"

"Vatan madhi"

"Ulug'imsan, Vatanim"

Barcha birgalikda "Yoshlar madhiyasi"ni baralla ijro etishadi. Shu bilan shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbir senariysi o'z nihoyasiga etdi.



Shoir haqida siz bilmagan qiziqarli ma'lumotlar

Bugun o'zbekning hassos shoirlaridan biri Muhammad Yusuf tavalludining 69 yilligi. Shu munosabat bilan quyida "O'zbekiston xalq shoiri" Muhammad Yusuf haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

- *Muhammad Yusuf Zahiriddin Muhammad Bobur, Shavkat Rahmon kabi 47 yil umr ko'rgan.*
- *Shoir taxallusini Tohir Malik qo'ygan. Tohir Malikga shoirning she'rlarini keltirishganida u iliq fikrlar bildiradi. "Ammo imzoni o'zgartiramiz, "Muhammad Yusupov" emas, "Muhammad" ham "Yusuf" ham Payg'ambarlarimizning ismlari. Ularga "ov" qo'shimchasini qo'shib, o'zimizdan begonalashtirmaylik" – deydi. Shundan buyon shoir Muhammad Yusuf taxallusi ostida ijod qiladi.*
- *Shoirning "Samarqandga borsam men agar" she'ri Muhammad Yusuf tushida oppoq kiyingan bir nuroniy qariyani ko'rgan kuni – tongda dunyoga kelgan.*
- *Muhammad Yusuf vaqtini ko'p kitob o'qishga sarflagan. U Bobur, Mashrab, Bedilni sevib mutolaa qilar edi. Anna Axmatova, Sergey Yesenin kabi rus shoirlari va Abdulla Oripovni ko'p o'qir edi.*
- *Shoirning o'zi suhbatlardan birida "Men har yili, ko'pincha, bir she'rim ta'siri bilan yuraman. Bu yilgilaridan "Biz baxtli bo'lamiz, Xudo xohlasa..." degan she'rimni yoqtiraman" degan edi. Muhammad Yusuf 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida, yuzlab muxlislar qarshisida she'r o'qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etgan.*



Muhammad Yusuf ijodi ayni gullab yashnagan paytda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida she'riyat muxlislari bilan uchrashish maqsadidagi ijodiy safarida 2001-yil 29-iyulda vafot etgan. Andijonda dafn etilgan. Toshkent shahri va Marhamat tumanidagi ko'chalardan biri, shuningdek, Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi va Marhamat tumanidagi ijod maktabi Muhammad Yusuf nomi bilan ataladi.

Xulosa

Bu davr o'zbek adabiyotida bir qancha soirlar ko'zga tashlanib qolgan, ularning deyarli hammasi adabiyot osmonida porloq yulduzlat kabi nur sochmoqda edi. Mana shu porloq yulduzlar orasida Muhammad Yusuf ham bor bo'lib uning yog'dulari hali hanuzgacha adabiyotimiz osmonini yoritib kelmoqda. Uning vatan, muhabbat, sevgi, ona, hayot haqida yozgan o'lmas she'rlari va dostonlari uzoq vaqt insonlar xayolidan chiqmaydi, yuraklarining tub-tubiga jo bo'lib qoladi.

Muhammad Yusuf chin muhabbatni kuyladi. Uni har xul jimjima so'zlarga o'rab – chirmab emas, shunchaki boricha she'rga tizdi, yurak dardlarini mana shu she'rlariga singishtirib yubordi. Shoirning yurak dardlarini uning "Mehr qolur" "Vatanim", "Surat", "Osmonning oxiri", "Qora quyosh" kabi she'r va she'riy dostonlari orqali anglashimiz mumkin.

Adib hayoti qiziqarli va sermazmundir. Uning ijodi esa olamlarga tatiydi. She'rlaridagi mavzularning xilma-xilligi va rang - barangligi Muhammad Yusufning serqirra ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Bu esa adib hayoti va ijodining yana ham chuqurroq o'rganishni talab qiladi. Shoirning hayoti va ijodin o'rganish uchun birgina muammoli ta'lim metodidan emas, balki boshqa bir necha metodlardan foydalanishimiz kerak.

Bunday metodlarga “Aqliy hujum” metodi, “Qarorlar shajarasi” metodi, “Klaster” metodi kabi metodlar kiradi.

Muhammad Yusuf bugungi kunda oramizda yo`q bo`lsa-da ammo asarlari orqali yuragimizda yashaydi. Xalqimizda bir naql bor - odamlarning yashab o`tgan umri emas, balki, qilgan ishlari ularning umrini belgilaydi. Muhammad Yusuf ham shunday qisqa umr ko`rgan bo`lsa ham, asrlarga yetgulik asarlar yozdi, o`zbek xalqining yuragidan chuqur joy oldi. Uning she`rlari hozirda dunyoning boshqa tillariga: ingliz, fransuz, nemis, rus tillarga tarjima qilinmoqda.

Karimov I. A. “Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch”. – Toshkent: “Ma`naviyat”, 2008.

Karimov I. A. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish eng oliy saodatdir” Toshkent “O`zbekiston”. 2015.

Karimov I. A. “Ma`naviy yuksalish yo`lida”. – Toshkent: “O`zbekiston”, 1998.

Karimov I. A. “Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor”. – Toshkent : “O`zbekiston” 2009. B.To`xliyev “ Adabiyot o`qitish metodikasi” Toshkent. 2008. Mirvaliyev S. “O`zbek adiblari” Toshkent: “Fan”, 1993.

Muhammad Yusuf “Saylanma” Toshkent: “Sharq”, 2012

Muhammad Yusuf “Shoir sevgisi” Toshkent: “Noshir”, 2014.

www. Google.uz

www. ziyonet.uz

www.kitob.uz

Bibliografiya xizmati

